

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARIDA
INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH AMALIYOTINING JORIY
HOLATI TAHLILI**

Tolibjonov Xurshidbek

Xalqaro Nordik universiteti

ORCID: 0000-0003-3303-6109

tolibjonovxurshidbek01@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish amaliyotining joriy holati tahlil qilinadi. Ish davomida yirik sanoat subyektlari UzAuto Motors, Almalyk KMK, Navoiy KMK, O'zbekneftgaz va Uzkimyosanoat misolida texnologik yangilanish jarayonlari, innovatsion boshqaruv tizimlari hamda ularning samaradorlik omillari o'rganildi. Tadqiqotda statistik, taqqoslama va kontent tahlil usullari qo'llanilib, korxonalar darajasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv, sanoat korxonasi, loyiha boshqaruvi, texnologik yangilanish, raqamli transformatsiya.

**АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ
ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Толибжонов Хуршидбек

Международный университет Нордик

Аннотация. В данном исследовании проведён анализ текущего состояния практики управления инновационными проектами на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. На примере крупных промышленных компаний UzAuto Motors, Алмалыкский ГМК, Навоийский ГМК, Узбекнефтегаз и Узкимёсаноат рассмотрены процессы технологической модернизации, особенности инновационного менеджмента и факторы их эффективности. В исследовании применены статистический, сравнительный и контент-анализ, а также разработаны практические рекомендации по совершенствованию механизмов управления инновационными проектами на уровне предприятий.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, промышленное предприятие, управление проектами, технологическое обновление, цифровая трансформация.

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF INNOVATION PROJECT MANAGEMENT PRACTICES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tolibjonov Khurshidbek
International Nordic University

Abstract. *This study analyzes the current state of innovation project management practices in industrial enterprises of the Republic of Uzbekistan. Using major companies such as UzAuto Motors, Almalyk MMC, Navoi MMC, Uzbekneftegaz, and Uzkimyosanoat as case studies, the research examines technological modernization processes, innovation management systems, and factors influencing their efficiency. Statistical, comparative, and content analysis methods were applied to develop practical recommendations for improving innovation project management mechanisms at the enterprise level.*

Keywords: *innovation management, industrial enterprise, project management, technological modernization, digital transformation.*

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston sanoat tarmoqlarida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari natijasida sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligi bosqichma-bosqich oshib bormoqda. Innovatsion boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy natijadorlikni kuchaytirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni ichki hamda xalqaro bozorlarida muvaffaqiyatli ilgari surishda innovatsion yondashuvlarning roli tobora ortib bormoqda.

"Yangi O'zbekiston – 2022–2026 yillar Taraqqiyot strategiyasi", "Innovatsion rivojlanish strategiyasi – 2022–2026" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" kabi asosiy dasturiy hujjatlar mamlakatda loyihalarni samarali boshqarishning aniq mexanizmlarini belgilab berdi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida sanoat ishlab chiqarishida raqamli texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini kengaytirish va energiya tejankor uskunalardan foydalanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi, ishlab chiqarish hajmlarining ortishi hamda mahsulot sifati va raqobatbardoshligini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus jamg'armalar tashkil etilib, korxonalarning moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Zagidullina (2022) o'z tadqiqotida O'zbekiston sanoat korxonalarining innovatsion faolligini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, korxonalar faoliyatida innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligi asosan ilmiy-texnik salohiyat, investitsion imkoniyatlar va boshqaruv tizimining yetukligiga bog'liq. Tadqiqot natijalari innovatsion jarayonlarni kuchaytirish uchun strategik rejalashtirish, texnologik modernizatsiya va ichki menejment tizimini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Makhmudov (2022) o'z ilmiy ishida O'zbekiston korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish va uni rivojlantirish omillarini tahlil qilgan. Tadqiqotda muallif innovatsion boshqaruvning strategik yondashuvi korxonalar samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ayniqsa, loyiha boshqaruvi tizimi asosida faoliyat yuritayotgan korxonalarda investitsion qarorlar tezroq va aniqroq qabul qilinishi, tavakkalchiliklar esa

samarali boshqarilishi aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion loyihalarni boshqarishning strategik modeli ishlab chiqarishdagi barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Karlibaeva (2022) o'z tadqiqotida investitsion loyihalarning korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rgangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion loyihalarning moliyalashtirish mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va ularni monitoring qilish samaradorlikni oshiradi hamda korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Muallif investitsion loyihalarni baholashda iqtisodiy samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish omillariga alohida e'tibor qaratgan. Bu yondashuv ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion rivojlanish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Rinatovna (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda O'zbekistonda industrializatsiya, innovatsiya va infratuzilma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Muallif sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari, xususan, sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Vrchota va Řehoř (2019) yillarda olib borgan uzoq muddatli tadqiqotlarida Chexiya ishlab chiqarish korxonalarida so'rovnomasida o'tkazilgan tahlillar asosida PM (Project Management) yondashuvi joriy etilgan korxonalarda innovatsion investitsiyalarni rejalashtirish va cheklovchi omillarni boshqarish samaraliroq yo'lga qo'yilganini aniqlagan. Bu PM tizimi innovatsion loyihalar ijrosini intizomlashtiradi, nazorat mexanizmlarini mustahkamlaydi hamda umumiy samaradorlikka zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari innovatsion boshqaruvni tizimli yo'lga qo'yish korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.


Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish amaliyotining joriy holatini baholash, ularning samaradorlik omillarini aniqlash va rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot davomida nazariy va empirik yondashuvlar uyg'un qo'llanildi. Statistik tahlil usuli orqali korxonalar faoliyatining raqamli va innovatsion ko'rsatkichlari o'rganildi, taqqoslama tahlil yordamida UzAuto Motors, Almalyk KMK, Navoiy KMK, O'zbekneftgaz va Uzkimyosanoat kabi yirik korxonalar misolida innovatsion boshqaruv tizimlari o'zaro solishtirildi. Shuningdek, kontent tahlil orqali davlat strategiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalar o'rganildi. Olingan natijalar asosida innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va modernizatsiya jarayonlari turli tarmoqlarning yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayoni esa faqat ichki bozor talablarini qondirish bilan cheklanmay, balki milliy ishlab chiqarishning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Natijada, iqtisodiyotning har bir tarmog'i YaIM tarkibidagi o'z ulushi va strategik ahamiyatini qayta belgilab, yangi iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarni shakllantirmoqda (1-rasm).

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyoti bosqichma-bosqich post-sanoat jamiyati modeliga xos yo'nalish bo'ylab rivojlanmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasining ustuvor o'rinni egallashi va sanoat tarmog'ining barqaror o'sib borishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorlashgani, diversifikatsiyalashgan tuzilma shakllanib, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga o'tayotganini anglatadi.



1-rasm. YalMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi 2025-yil yanvar-iyun

Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, texnologik yangilanish, ta'lim tizimi va moliyaviy xizmatlar singari yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarning kengayishi orqali yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ining nisbiy ulushining kamayishi, bir tomondan, iqtisodiyotda modernizatsiya jarayonlarining chuqurlashayotganini, ikkinchi tomondan esa mehnat unumdorligining ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu tendensiya ko'plab rivojlangan davlatlar iqtisodiy o'sish bosqichida kuzatilgan holatga o'xshash bo'lib, O'zbekistonning ham strukturaviy transformatsiya bosqichida ekanligini tasdiqlaydi.

Qurilish sohasidagi biroz pasayish esa ayrim yirik infratuzilma loyihalarining yakunlanishi yoki bozorning nisbatan to'yinganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sanoat tarmog'ining YalMdagi ulushi 26,6 foizgacha oshgani mamlakat sanoatini modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan siyosatning amaliy natijalarini aks ettiradi. Ushbu o'sish, asosan, kimyo, oziq-ovqat, yengil sanoat va metallurgiya tarmoqlarida qayd etilgan yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan izohlanadi.

O'zbekiston sanoat tarmoqlarida innovatsion faollik darajasi bir xil emasligi kuzatiladi. Har bir tarmoq texnologik yangilanish sur'ati, investitsion salohiyati hamda ilmiy-texnik imkoniyatlari bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Ayniqsa, kimyo sanoati, metallurgiya va mashinasozlik yo'nalishlarida so'nggi yillarda amalga oshirilgan modernizatsiya dasturlari natijasida innovatsion loyihalar ulushi sezilarli darajada ortgan. Shu bilan birga, to'qimachilik hamda oziq-ovqat sanoatida ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich kengayib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

Sanoat tarmoqlari bo'yicha innovatsion loyihalar ulushi 2024-yil holatiga ko'ra (%)

Tarmoq nomi	Innovatsion loyihalar soni	Ulushi (%)	Eng yirik korxonalar misolida
Kimyo sanoati	124	22,5	O'zkimyosanoat, Farg'onaazot
Metallurgiya	98	17,8	Navoiy KMK, Almalyk KMK
Mashinasozlik	85	15,4	UzAuto Motors, MAN Uzbekistan
Energetika	67	12,1	O'zbekgidroenergo, Hududiy elektr tarmoqlari
Qurilish materiallari	61	11,0	Qizilqumsement, Bekobodsement
To'qimachilik	78	14,2	Indorama Kokand, Bukhara Cotton Textile
Oziq-ovqat	38	7,0	Nestle Uzbekistan, Iceberg LLC

Jadval ma'lumotlaridan anglashiladiki, O'zbekiston sanoatida innovatsion loyihalarning asosiy qismi kimyo sanoati (22,5%), metallurgiya (17,8%) va mashinasozlik (15,4%) tarmoqlarida to'plangan. Ushbu holat mazkur tarmoqlarda yuqori ilmiy-texnik salohiyat, mustahkam ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, energetika (12,1%) va to'qimachilik (14,2%) sohalarida ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish faolligi sezilarli darajada ortib bormoqda. Buning sababi energiya tejankor texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda raqamli yechimlarning ishlab chiqarish jarayonlariga keng tatbiq etilayotganidadir.

Qurilish materiallari (11%) va oziq-ovqat sanoati (7%) tarmoqlarida innovatsion faollik nisbatan past bo'lishiga qaramay, bu sohalarida ham texnologik yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich kuchaymoqda. Xususan, jadvalda qayd etilgan "O'zkiyosanoat", "Farg'onaazot", "UzAuto Motors", "Navoiy KMK", hamda "Indorama Kokand" kabi yirik korxonalar O'zbekiston sanoatining innovatsion o'sish drayverlari sifatida muhim rol o'ynamoqda.

UzAuto Motors JSC

UzAuto Motors O'zbekistonda eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalardan biri bo'lib, innovatsion boshqaruv va texnologik yangilanishga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Masalan, so'nggi yillarda kompaniya 8 ta yangi avtomobil modeli ustida ish olib bormoqda ayniqsa suv va miniven segmentiga e'tibor ko'tarilgan. Bundan tashqari, uskunalar mahalliyashtirish loyihalari amalga oshirilmoqda: korxona "Global Emerging Markets (GEM)" platformasi asosida Tracker va Onix modellari ishlab chiqilishi uchun \$427,6 mln sarmoya kiritgan va Andijonda yiliga 18 000 tonnaga yaqin quyish-qayta ishlash korxonasi ochilgan.

Ushbu holat mobil tizimlar, avtomatlashtirilgan titrlovchi uskunalar va mahalliy komponentlar ishlab chiqarish orqali innovatsion loyihalarni boshqarish tizimida katta o'zgarishlar bo'layotganini ko'rsatadi. UzAuto boshqaruv tizimida loyiha darajasida aniq mexanizmlar joriy etildi: model ishlab chiqishdan tortib, qismlar mahalliyashtirish, eksport bozorlariga chiqish strategiyasi va biznes-modelni yangilash kabilar. Bundan tashqari, bu korxona raqamli boshqaruv, sifat nazorati va xalqaro standartlarga muvofiq joriy etilgan texnologiyalarni o'zida jamlagan.

Almalyk Mining and Metallurgical Combine (AMMC)

AMMC sanoat-metallurgiya tarmog'ida O'zbekistonda texnologik yangilanish va investitsiya yo'nalishida yetakchi korxonalardan hisoblanadi. Xususan, AMMC tomonidan yangi zondlash, ochiq kon va yer-osti konlarini rivojlantirish, majmua darajasida 60 mln tonnaga yaqin ruda qayta ishlash quvvatiga ega 3-chi zavod qurilishi yo'lga qo'yilgan.

Bu kabi loyiha investitsiyaviy jihatdan billion dollarlik sarmoyaga ega bo'lib, korxona ilmiy-texnik salohiyatni oshirish va eksport yo'nalishida ishlab chiqarishni kengaytirish strategiyasini amalga oshirmoqda. AMMC boshqaruv tizimida loyihalarni tanlashdan tortib, investitsiya rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va xodimlar malakasini oshirish singari bosqichlar aniq boshqarilmoqda. Bu korxona innovatsion boshqaruv tizimi nuqtai nazaridan sanoat korxonalari zaviyasida muhim namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Navoiy Mining and Metallurgical Company JSC (NKMK)

NKMK ham korxona darajasida innovatsion faoliyatni kengaytirgan. Masalan, "Navoiyuran" korxonasi misolida 18 ta innovatsion loyiha qabul qilingan va bu loyihalar mahsulot xarajatlarini kamaytirish, avtomatlashtirish, energiamiz va texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan.

NKMK o'z ishlab chiqarish bosqichida zamonaviy texnologiyalar mis, oltin qazib olish va qayta ishlash, chiqindilarni qayta ishlash va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini tatbiq etmoqda. Shu orqali tarmoq ichida innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligi oshmoqda, loyiha tanlanishi, monitoringi va amalga oshirilishi bo'yicha tizimli yondashuvlar

shakllanmoqda. Korxona shuningdek, “ESG” hamda barqaror rivojlanish talablarini hisobga olgan holda boshqaruv tizimini takomillashtirmoqda.

Uzkimyosanoat JSC

Uzkimyosanoat kimyo sanoati tarmog'ida davlatga tegishli integratsiyalashgan korxona bo'lib, o'zida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda. Korxona 2022-2026 yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida 20 ta innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, kompaniya va uning tarmoqlari “UZCCT” “Uzbekistan Center for Chemical Technology Innovations” markazi tashkil etish bo'yicha xalqaro hamkorlik qilmoqda.

Yaqinda esa Uzkimyosanoat va NextChem S.p.A. o'rtasida karbon tutib qolish (carbon capture) texnologiyasini joriy etish bo'yicha kelishuv imzolandi bu korxona boshqaruvi va innovatsion loyihalarning federal hamda tarmoqli jihatdan bosqichma-bosqich integratsiyasi namunasidir. Uzkimyosanoat innovatsion loyihalarni tanlash, ilmiy hamkorlik o'rnatish va texnologik yangilanishni moliyalashtirish bo'yicha boshqaruv tizimini ishlab chiqqan, bu bilan kimyo tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan.

Uzbekneftegaz JSC

Uzbekneftegaz tarmoqli innovatsiyalarni tatbiq qilish borasida so'zga loyiq korxona bo'lishiga qaramay, raqamli ma'lumotlar va maxsus loyihalar jamoatchilikka keng taqdim etilmagan. Shu bilan birga, korxona bir nechta muhim investitsion hamkorlik loyihalarini rejalashtirmoqda bu esa uglevodorod sohasida texnologik yangilanish va integratsiyalashuv jarayonida boshqaruvning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Jarayonlarni soddalashtirish, import qilinadigan uskunalarni lokalizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali Uzbekneftegaz innovatsion boshqaruvni kuchaytirmoqda.

Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir sanoat korxonasi o'z faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, mos texnologik yondashuvlarni tanlamoqda. UzAuto Motors ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini yagona tizimga birlashtiruvchi ERP platformasini joriy etgan bo'lsa, Almalyk KMK konchilik va metallurgiya jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirmoqda. Navoiy KMK esa raqamli transformatsiya yondashuvlari orqali konlarning ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga intilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekneftegaz korxonasida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovatsion loyihalar izchil amalga oshirilmoqda. Uzkimyosanoat kompaniyasi esa xalqaro ilg'or tajribani inobatga olgan holda ammiak va karbamid ishlab chiqarish liniyalarini to'liq avtomatlashtirishga kirishgan.

Xulosa va takliflar.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarishning joriy holati shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda modernizatsiya, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlarida muhim natijalarga erishilmoqda. Shu bois, kelgusida korxona darajasida loyiha boshqaruvi mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish, ichki menejment tizimini takomillashtirish hamda ilg'or xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda modernizatsiya, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Yirik korxonalar — UzAuto Motors, Almalyk KMK, Navoiy KMK, O'zbekneftegaz va Uzkimyosanoat misolida innovatsion boshqaruv tizimlari bosqichma-bosqich shakllanib, xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarda investitsion faollik va ilmiy-texnik salohiyat yetarli darajada bo'lmagani sababli innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muvozanat yetishmayapti. Shu bois, korxona darajasida loyiha boshqaruvini

chuqurlashtirish, raqamli transformatsiyani kengaytirish va ilg'or xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish sanoatning innovatsion rivojlanishini yanada jadallashtiradi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6102462>.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

Karlibaeva, R., et al. (2022). The effectiveness of investment projects in development of innovative activities of enterprises.

Makhmudov, B. J. (2022). The factor of management of innovative activities of enterprises. PNR Journal, 18(5), 7953–7965.

Rinatovna, K. K. (2024). Industrialization, innovation, and infrastructure in Uzbekistan. <https://inlibrary.uz/index.php/tajmei/article/view/44051>.

Vrchota, J., & Řehoř, P. (2019). The project management application for innovation in manufacturing enterprises: Evidence from the Czech Republic. Journal of Competitiveness, 11(4), 144–160. doi:10.7441/joc.2019.04.09.

Zagidullina, K. R. (2022). Innovative activity of industrial enterprises of the Republic of Uzbekistan. <https://www.researchgate.net/publication/390643716>.